

O‘RTA HIND-ORIY VA SHARQIY ERON TILLARI O‘RTASIDAGI LEKSIK O‘ZLASHMALARDA FONOLOGIK MOSLASHUV VA SEMANTIK O‘ZGARISHLAR

Shohjahon Sa’dullayev

Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti tayanch doktoranti

E-mail: shohjahontadqiqot@gmail.com

ANNOTATSIYA

Mazkur tezisda o‘rta hind-oriy va sharqiy eron tillari o‘rtasidagi leksik o‘zlashmalarning fonologik hamda semantik xususiyatlari tahlil qilinadi. O‘zlashma so‘zlarda kuzatiladigan tovush o‘zgarishlari, ma’no torayishi, ma’no kengayishi, metaforik va metonimik ko‘chish jarayonlari o‘rganilgan. Tadqiqot natijalari Markaziy Osiyo va Hindiston yarimoroli xalqlari o‘rtasidagi uzoq muddatli madaniy, diniy va iqtisodiy aloqalar til tizimlarida chuqur iz qoldirganligini ko‘rsatadi.

***Kalit so‘zlar:** o‘rta hind-oriy tillari, sharqiy eron tillari, leksik o‘zlashma, fonologik moslashuv, semantik o‘zgarish, til kontaktlari, etimologiya.*

ABSTRACT

This thesis analyzes the phonological and semantic features of lexical borrowings between Middle Indo-Aryan and East Iranian languages. The processes of sound changes, narrowing of meaning, broadening of meaning, metaphorical and metonymic migration observed in borrowed words are studied. The results of the study show that long-term cultural, religious and economic contacts between the peoples of Central Asia and the Indian subcontinent have left a deep mark on the language systems.

***Keywords:** Middle Indo-Aryan languages, East Iranian languages, lexical borrowing, phonological adaptation, semantic change, language contacts, etymology.*

KIRISH

O‘rta hind-oriy tillari (pali, prakrit, buddaviy sanskrit, gandhari prakrit) hamda sharqiy eron tillari (sug‘d, baqtriya, xotan-sak va xorazmiy) qadim zamonlardan boshlab o‘zaro faol til aloqalarida bo‘lgan. Buyuk Ipak yo‘li orqali amalga oshgan savdo, madaniy va diniy munosabatlar natijasida ushbu tillar o‘rtasida keng ko‘lamli leksik almashinuv yuzaga kelgan. O‘zlashmalar tarixiy til kontaktlarini o‘rganishda muhim lingvistik manba hisoblanadi.

TADQIQOT NATIJALARI

Tadqiqot davomida hind-oriy tillaridan sharqiy eron tillariga o‘tgan o‘zlashmalarda aspiratsiyalangan undoshlarning soddalashuvi, fonemalarning qabul

qiluvchi til tizimiga moslashtirilishi hamda ayrim tovushlarning almashuvi kuzatildi. Sharqiy eron tillaridan hind-oriy tillariga kirgan birliklarda esa soʻz oxiriga qisqa unli qoʻshilishi va mahalliy fonologik tizimga moslashtirish jarayonlari aniqlandi.

Semantik tahlil natijalari oʻzlashmalarda maʼno torayishi, maʼno kengayishi, metaforik kengayish va metonimik koʻchish kabi hodisalarning keng tarqalganligini koʻrsatdi. Ayrim diniy terminlar tor maʼnoda qoʻllanila boshlagan boʻlsa, boshqa birliklar yangi va kengroq semantik mazmun kasb etgan. Shu bilan birga, ayrim oʻzlashmalar fonetik oʻzgarishlarga uchragan boʻlsa-da, dastlabki maʼnosini saqlab qolgan.

Leksik qatlam tahlili hind-oriy tillarining taʼsiri asosan din, falsafa, tibbiyot va axloq sohalarida, sharqiy eron tillarining taʼsiri esa maʼmuriy boshqaruv, harbiy ishlar, savdo va moddiy madaniyat terminologiyasida kuchli namoyon boʻlganligini koʻrsatadi.

XULOSA

Oʻrta hind-oriy va sharqiy eron tillari oʻrtasidagi leksik oʻzlashmalar fonologik va semantik moslashuvning murakkab jarayonlarini aks ettiradi. Ushbu jarayonlar Markaziy Osiyo va Hindiston yarimoroli xalqlari oʻrtasidagi tarixiy-madaniy aloqalarning lingvistik ifodasi hisoblanadi. Tadqiqot natijalari tarixiy tilshunoslik, etimologiya va til kontaktlari masalalarini oʻrganishda muhim ilmiy ahamiyatga ega.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Gharib B. Sogdian Dictionary. Tehran, 1995.
2. Cheung J. Etymological Dictionary of the Iranian Verb. Leiden–Boston: Brill, 2007.
3. Schoubben N. Traces of Language Contact in Niya Prakrit: Bactrian and Other Foreign Elements. Leiden University, 2024.
4. Turner R. L. A Comparative Dictionary of the Indo-Aryan Languages. London–New York, 2000.
5. Saʼdullayev S. Problems of Early Linguistic Contact and Etymology of Indo-Aryan and Central Asian Iranian Languages // Oriental Renaissance. 2026. Vol. 6. No. 1. P. 569–581.